

O'LKANSHINOSLIK MUZEYLARI VOSITASIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARNING ESTETIK MADANIYAT RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNI

Siddiqov Dilshod

Namangan davlat instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'lkashunoslik muzeylari ta'lim jarayonining muhim estetik-pedagogik resursi sifatida tahlil qilinadi. Bo'lajak pedagoglarning estetik madaniyatini rivojlantirishda muzey eksponatlari, milliy–madaniy meros namunalarining o'rni, ularni badiiy idrok etish va qadrlash ko'nikmalarini shakllantirish yo'llari ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqotda muzey muhiti orqali talabalar estetik ehtiyojlarini boyitish, estetik did, badiiy tafakkur va madaniy qadriyatlarga munosabatni rivojlantirishning mazmuniy komponentlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: o'lkashunoslik muzeyi, estetik madaniyat, estetik tarbiya, muzey pedagogikasi, madaniy meros, badiiy tafakkur, estetik did, pedagogik kompetensiya, interaktiv metodlar, ta'lim resursi, muzey eksponatlari, vizual materiallar.

СОДЕРЖАНИЕ РАЗВИТИЯ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ ЧЕРЕЗ КРАЕВЕДЧЕСКИЕ МУЗЕИ

Аннотация

В данной статье анализируются краеведческие музеи как важный эстетико-педагогический ресурс образовательного процесса. Научно освещаются музейные экспонаты, роль образцов национально–культурного наследия в развитии эстетической культуры будущих педагогов, пути формирования навыков их художественного восприятия и оценки. В данной статье анализируются краеведческие музеи как важный эстетико-педагогический ресурс образовательного процесса. Научно освещаются музейные экспонаты, роль образцов национально–культурного наследия.

Ключевые слова: краеведческий музей, эстетическая культура, эстетическое воспитание, музейная педагогика, культурное наследие, художественное мышление, эстетический вкус, педагогическая компетентность, интерактивные методы, образовательный ресурс, музейные экспонаты, наглядные материалы.

THE CONTENT OF DEVELOPING AESTHETIC CULTURE OF FUTURE TEACHERS THROUGH THE MEANS OF MUSEUMS OF LOCAL HISTORY

Annotation

This article analyzes local history museums as an important aesthetic and pedagogical resource of the educational process. In the development of the aesthetic culture of future educators, the museum exhibits, the role of samples of national and cultural heritage, the ways of forming the skills of their artistic perception and appreciation are covered on a scientific basis. This article analyzes local history museums as an important aesthetic and pedagogical resource of the educational process. In the development of the aesthetic culture of future educators, the mument.

Key words: Museum of local lore, aesthetic culture, aesthetic education, Museum pedagogy, cultural heritage, artistic thinking, aesthetic taste, pedagogical competence, interactive methods, educational resource, museum exhibits, visual materials.

Bugungi kunda bo'lajak pedagoglarga bilim berish tizimini takomillashtirishda axloqiy mezonlar ustuvorligiga alohida urg'u berish, axloq bilan uyg'unlashtirish masalalari dolzarblik kasb etmoqda. Axloq tarixiy hodisa sifatida kishilarning, ijtimoiy birliklarning tabiatga munosabatini ham ma'naviy qadriyatlarda ifodalaydi. Ayniqsa o'lkanshinoslik muzeylari vositasida bo'lajak pedagoglarning estetik madaniyatini rivojlantirish orqali bilimlarni shakllantirishda ahamiyatga ega. Shuning uchun tabiatni muhofaza qilish faoliyatini tartibga soluvshi axloqiy qadriyatlarni muvofiqlashtirish, ularni ijtimoiy-biologik borliqdan mustaqilligi haqidagi fikrlar yoki uning subyektivligini, maqsadga muvofiq ongli boshqarilishini ma'naviy faoliyatning boshqa shakllari bilan aralashtirib yuborish nazariy jihatdan mumkin emas. Buning uchun esa, ta'limni xalqaro standartlarga mos ravishda modernizatsiyalash talab etiladi. Ta'limda "insoniylashtirish" va "insonparvarlashtirish" tushunshalariga ham ko'p duch kelamiz.

Bizningcha, ta'lim jarayonini insonravarlik tamoyili asosida tashkil etishda

Ta'limning globallasuvi hamda sog'lom va muammoli ta'lim muhitini tashkil etish orqali talabalarga sifatli ta'lim berish maqsadiga xizmat qiladigan integrallashgan ta'limni tashkil qilish ishlari amalga oshirilmoqda. Integrallashgan kasblar paydo bo'lmoqda. Bo'lajak pedagoglarning tarixiy bilimlarini shakllantirishga integratsiyalashgan ta'limning o'zni ayniqsa, muhimdir. O'lkanshinoslik muzeylari vositasida bo'lajak pedagoglarning estetik madaniyatini shakllantirishga integrativ yondashuvni qo'llash va unda axborotlarni qayta ishlash texnologiyasidan foydalanish pedagogik soha bo'yicha o'ziga xos innovatsion yondashuv bo'lib, uning yordamida ta'lim jarayonida ijobiy sifat o'zgarishi va yuqori samaradorlikka erishiladi.

Bu talablarni hal qilish esa ijtimoiy, texnologik islohotlarga bog'liq. Bu islohotlarning barshasi talabalarning ekoetik komretentligini, estetik madaniyatini rivojlantirishga asoslangan.

Muzeylar vositasida bo'lajak pedagoglarning estetik madaniyatini rivojlantirishda ta'lim-tarbiya jarayonida tabiatga, biosferani muhofaza qilish mas'uliyatini shakllantirishning mafkuraviy xususiyatlariga, tarixiy voqealarga, vorislik masalalariga alohida diqqat-e'tiborni qaratish kerak. Shuningdek, talabalarning hayot tarzidagi tarixiy tamoyillarga, meyorlarga mos bo'lib, uning tashkilotchilik qobiliyatlarini, ehtiyojlarini, manfaatlarini, mas'uliyatini, tafakkur uslublarini shakllantirish vazifasini ham bajaradi. Muzeylar faqatgina madaniy qadriyatlar namoyishigina bo'lib qolmasdan, ular bizni o'tmish sayohatiga chorlovchi bilimlar majmui hamdir.

O'lkashunoslik muzeylari - ilmiy tekshirish va madaniy ma'rifiy muassasadir. Ma'lum geografik yoki ma'muriy hududning tarixiy yodgorliklari, tabiiy ilmiy va badiiy to'plamlari, xalq san'ati asarlarini yig'adi, saqlaydi, ilmiy o'rganadi, ko'rgazmalar uyushtiradi va targ'ib qiladi. Muzeylarning keng tarqalgan turi bo'lgan O'lkashunoslik muzeylari kompleks yo'nalishga ega: unda, asosan, tabiat, tarix, ba'zilarida shuningdek san'at, adabiyot va etnografiya, ayrimlarida qishloq xo'jaligi, iqtisod, sport kabi bo'limlar ham bo'ladi. O'lkashunoslik muzeylari katalog, yo'l ko'rsatkichlar va boshqalarni nashr qiladi.

XX-asr boshida O'rta Osiyoda 4 ta O'lkashunoslik muzeylari bo'lgan. Hozirgi kunda O'zbekiston hududida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlarida O'lkashunoslik muzeylari (jumladan, Andijon viloyat o'lkashunoslik muzeyi, Farg'ona viloyat o'lkashunoslik muzeyi va boshqalar) bor va ular o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatadi.

O'zbekiston muzeylari 130 yillik tarixga ega. Masalan, O'zbekiston Davlat tarix muzeyi. Mazkur muzey O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Arxeologiya instituti qoshida faoliyat yuritadi. Respublikadagi eng keksa hamda muhim ahamiyatga ega muzeylardan biri bo'lmish bu maskanda 250 mingdan ziyod eksponatlar saqlanadi. Muzeyga 1876 yilda asos solingan bo'lib, hozirgi kunga qadar unda ko'plab tadqiqotlar olib boriladi. Muzeyning boy ekspozitsiyasi O'zbekistonning tosh asridan boshlab bugungi zamonaviy tarixiga oid ma'lumotlarni namoyish etadi. Xususan, qadimiy eksponatlar o'rin olgan bo'lim kishida katta qiziqish uyg'otadi: tosh buyumlar, qoyatosh suratlari, petroglif, neandertalning skeleti va boshqalar.

Namangan viloyat o'lkani o'rganishda muzey pedagogikasi alohida ahamiyatga ega bo'lib, bugun dunyo muzeylari tajribasida allaqachon o'z o'rnini topib olgan. Ko'p yillik jahon tajribasidan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, u shaxsni tarbiyalash jarayonidagi bebaho ko'makchi, murg'ak jonlarni shaxs sifatida shakllantiradi, jamiyat a'zosi o'laroq, minglab insonlar bilan birga yashashga o'rgatadi, yosh avlodni bunyodkorlikka da'vat etadi. Uning vazifalari, albatta, ko'p qirrali bo'lib, tashrifchilarni muzeyda namoyish qilinayotgan voqea-hodisalarni his etish, mulohaza yuritish va saboq olishga o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Юреньева Т.Ю. Музей в мировой культуре. – М.: Русское слово, 2003. – 435 с.;
2. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tarix/muzeylarning-ilmiy-tad-i-otchilik-faoliyati>
3. Юреньева Т.Ю. Музееведение. – М.: Академпроект, 2003. – 382 с.
4. Культурное наследие и музей в XXI веке : учеб. пособие / ред. Мастеница Е. – СПб: СПбГУК, 2018. – 248 с.: ил
5. Юхневич М.Ю. Я поведу тебя музей. Учеб. пособие по музейной педагогике. - М.: 2001. – 223 с.
6. Платонова О.В., Жвитиашвили Н.Ю. Арт-терапия в художественном музее: Учеб.пособие для студентов гуманитарно-художественных вузов. – СПб.: 2000.;
7. Лебедева Л.Д. Педагогические основы арт-терапии в образовании. – СПб.: 2001
8. Щербина А.В. Музейное проектирование : учебно-методическое пособие. – Тольятти.: ТГУ, 2011. 68 с.